HARBIY KADRLAR TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

• INNOVATIVE METHODS OF TRAINING MILITARY PERSONNEL

• ИННОВАЦИОННЫЕ ПРИЕМЫ В ПОДГОТОВКЕ ВОЕННЫХ КАДРОВ

Leytenant Safarov Og’abek Bobomurod o’g’li
41401-harbiy qism o’quv-jangavor aviatsiya otriyadi komandirining uchish tayyorgarlik bo’yicha o’rinbosari
010820safarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy sharoitda harbiy ta’lim tizimini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ishda Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan harbiy ta’limni takomillashtirishga oid fikrlar ham qisqacha yoritilgan.

• ***Abstract.*** This article highlights the role and significance of innovative approaches in the process of training military personnel. Issues of developing the military education system in modern conditions, improving the quality of personnel training through the use of digital technologies and interactive teaching methods are analyzed. Special attention is also paid to student-centered education, the development of practical skills, and the development of quick decision-making skills. The work also briefly highlights the views expressed by Shavkat Mirziyoyev on improving military education.

• ***Аннотация.*** В данной статье освещаются роль и значение инновационных подходов в процессе подготовки военных кадров. Проанализированы вопросы развития системы военного образования в современных условиях, повышения качества подготовки кадров за счет использования цифровых технологий и интерактивных методов обучения. Также особое внимание уделяется личностно-ориентированному образованию, развитию практических навыков и формированию умения быстро принимать решения. В работе также кратко освещены высказанные Шавкатом Мирзиёевым мнения по совершенствованию военного образования.

Kalit so’z: Harbiy ta’lim, globallashuv, axborot texnologiyalari, kadrlar tayyorlash, innovatsion texnologiyalar, ma’naviy tarbiya, interaktiv metodlar.

• ***Keywords:*** Military education, globalization, information technology, personnel training, innovative technologies, spiritual education, interactive methods.

• ***Ключевые слова:*** Военное образование, глобализация, информационные технологии, подготовка кадров, инновационные технологии, духовное воспитание, интерактивные методы.

Kirish. Bugungi globalashuv va tahlikali zamonda har bir davlat o’z milliy xavfsizligini ta’minlashi, mudofaa tizimini mustahkamlashi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun harbiy salohiyati yuqori, jismonan baquvvat, ruhan yetuk va ma’naviy barkamol shaxslarni shakllantirish zarur. Buning uchun esa harbiy kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shu o’rinda aytishimiz joizki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Zamonaviy armiyani barpo eytishda eng muhim omil – professional kadrlar tayyorlashdir” degan edi [1]. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan toki bugungi kungacha harbiy salohiyatni kuchaytirishga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Zamonaviylashayotgan dunyoda xavsizlikka tahdidlar tobora ortib, murakkablashmoqda. Shu tufayli harbiy ta’lim tizimni takomillashtirish, uni zamon talablariga mos tarzda rivojlantirish ayniqsa zamonaviy innovatsion

yondashuvlardan foydalanib ta’lim jarayonini tashkil etish bugungi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Qurolli kuchlarimiz salohiyati, eng avvalo zamonaviy bilim va kasbga ega bo’lgan kadrlar bilan belgilanadi” - degan fikrlarni keltirgan edilar [2].

Bugungi zamonaviy texnologiyalar asrida oddiy usullardan bo’lib qolgan an’anaviy o’qitish usullari bilan cheklanib qolmasdan balki innovatsion o’qitish tizimini joriylantirish muhim hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish jarayonlari hamda yangi turdagi xavf-xatarlarning yuzaga kelishi harbiy ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, simulyatsiya texnologiyalari, virtual va kengaytirilgan reallik, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlari, interaktiv platformalar kabi innovatsion vositalar harbiy kadrlarni tayyorlash jarayoniga keng kirib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda real sharoitlarga yaqin muhitda tayyorgarlik ko‘rish imkonini yaratadi. Harbiy ta’lim berishda, kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishi nafaqat bilim berish jarayonini modernizatsiya qiladi, balki tinglovchilarning mustaqil fikrlash, strategik tahlil qilish va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, innovatsiyalar yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish, ya’ni har bir tinglovchining qobiliyati va ehtiyojidan kelib chiqib ta’lim berish imkoniyati kengayadi.

Zamonaviy harbiy ta’lim jarayoni o’z mohiyatiga ko’ra murakkab va ko’p qirrali bo’lib, unda ilmiy nazariya, amaliy mashg’ulotlar, interaktiv metodlar, hamkorlikda o’qitish, psixologik treninglar, simulyatsion dasturlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uyg’unlashgan holda qo’llaniladi. Harbiy kadrlarni tayyorlashda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvalohida o’rin tutadi. Bu usulda har bir kursant yoki tinglovchining individual qobiliyatlari, psixologik holati, bilim olish tezligi, jismoniy tayyorgarligi hisobga olinadi. Masalan, O’zbekiston Qurolli Kuchlari Akademiyasi va boshqa oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlar uchun o’quv dasturlari shaxsiy rivojlanish ehtiyojlariga

mos ravishda modullashtirilgan holda joriy etilmoqda. Bu esa ularning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, amaliy ko’nikmalarini ham samarali shakllantiradi. Buguniki kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo’llanilishi harbiy ta’lim samaradorligini keskin oshirmoqda. Raqamli ta’lim texnologiyalarini harbiy kadrlarga ta’lim berish jarayonida ham faol qo’llash, innovatsion darslarni tashkil etish harbiy kadrlarni intellectual salohiyatini shakllantirishga ko’maklashmoqda. Yuqorida aytganimizdek zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim tizimni tashkil etish harbiy xizmatchilarni jangovor kasbiy bilim berish bilan birga tanqidiy va tezkor fikirlash, axborotni to’g’ri tahlil qila olish ko’nikmalarini ham beradi. Raqamli ta’lim texnologiyalari o’quvchining intellektual salohiyatini yanada chuqur rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Chunki bunday texnologiyalar ta’lim oluvchiga an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan samaraliroq hisoblanib, ularga interaktiv vazifalar, virtual muhitlar orqali murakkab vaziyatni mustaqil yechish imkonini beradi. Bunday ta’lim vositalari o’quvchi tafakkurini kengaytirib qaror qabul qila olish salohiyatini oshiradi. Bu shaxsning mas’uliyati va halollik kabi qadriyati bilan birgalikda ijodiy fikrlashini ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, harbiy kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi kunda muhim va zarur yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Prezident o’z nutqlari va chiqishlarida ta’lim tizimini to’liq tubdan isloh qilish kadrlar tayyorlashning asosiy sharti ekanligini ta’kidlaydi. “Mamlakatning barcha sohalarida kadrlar yetishmovchiligi mavjud va u yoshlarni ilmiy va kasbiy jihatdan tayyorlashga yo’naltirilgan dasturlar orqali bartaraf etilishi kerak” deydi Prezident [3]. Zamonaviy xavfsizlik muhitining murakkablashuvi, yangi turdagi tahdidlarning paydo bo‘lishi harbiy mutaxassislardan nafaqat yuqori darajadagi nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikma, tezkor fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etmoqda. Shu jihatdan qaraganda, an’anaviy ta’lim usullari bilan cheklanib qolish yetarli emasligi yaqqol ko‘rinadi. Aniq ayta olishimiz mumkinki harbiy ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o‘quv

jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, simulyatsiya vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, raqamli platformalar orqali o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish harbiy xizmatchilarning real vaziyatlarga yaqin sharoitda tayyorgarlik ko‘rishiga imkon yaratadi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash bilan birga, murakkab vaziyatlarda tez va to‘g‘ri harakat qilish malakasini rivojlantiradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar harbiy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir tinglovchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish, ularning qobiliyatini to‘liq namoyon etish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan va liderlik qobiliyatiga ega harbiy kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, harbiy kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish orqali zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bu esa mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev.Qurolli kuchlar kuni munosabati bilan so’zlagan nutqi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2022
2. Sh.Mirziyoyev. “yangi O’zbekiston strategiyasi” Toshknt “O’zbekiston, 2021. 200-201-b
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. Harbiy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi farmon va qarorlar to’plami. - Toshkent, 2020 2024
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz, - Toshkent:O’zbekiston,2017
5. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Harbiy pedagogika, Toshkent, 2018,78-b

6. Turamuratov U. U., Qurbonova Z. M., Mamatmurotov O. K., Oltiboyev A. E., Zaripova S. E.Inklyuziv ta‘‘lim. Gospital pedagogika. Termiz davlat pedagogika instituti. 2024

7. Baboyev A. T., Safoyev X. A., Niyazov E. Sh., Hamroyev K. Q.Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashmuammo va yechimlar. Buxoro davlat pedagogika instituti. 2024

8. Xoliqov I. R. Harbiy ta‘‘lim fakulteti talabalarida pedagogik kompetensiyaning shakllanishi.Buxoro davlat universiteti. 2022